

O'QUVCHILARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRUVCHI XAVF OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Shaynayev Ruslan Eshqobilovich

*Surxondaryo viloyatida Qumqo'rg'on
tumanidagi 15-maktab psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarda destruktiv xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va psixologik xavf omillari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Oilaviy muhit, tengdoshlar ta'siri, ta'lim muhiti, ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalarning o'quvchilar xulq-atvoriga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, destruktiv xulq-atvorning oldini olish va uni korreksiya qilishda maktab psixologi, pedagog hamda ota-onalar hamkorligining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: destruktiv xulq-atvor, xavf omillari, ijtimoiy-psixologik tahlil, deviant xulq-atvor, o'quvchi, maktab psixologi, profilaktika, oilaviy muhit, emotsional zo'riqish, psixologik korreksiya.

KIRISH

Destruktiv xulq-atvor shaxsning o'ziga yoki atrofdagilarga zarar yetkazuvchi, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy va huquqiy me'yorlardan chetga chiquvchi xatti-harakatlar majmuasidir. Bunday xulq-atvorning shakllanishi birgina sabab bilan emas, balki biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Ayniqsa, maktab yoshidagi o'quvchilarda ushbu omillarni erta aniqlash va profilaktik choralarni ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi. Destruktiv xulq-atvorning shakllanishida oilaviy muhit asosiy xavf omillaridan biri hisoblanadi. Ota-onalar o'rtasidagi nizolar, oiladagi zo'ravonlik, mehr va e'tiborning yetishmasligi, nazoratning sustligi yoki haddan tashqari qat'iy tarbiya usullari bolada agressivlik, ishonchsizlik va salbiy xulq-atvorning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Aksincha, sog'lom oilaviy muhit va emotsional qo'llab-quvvatlash bolaning ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi.

Maktab muhiti ham o'quvchilarning xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Pedagog va o'quvchi o'rtasidagi salbiy munosabatlar, tengdoshlar tomonidan kamsitilish, bulling, o'quvdagi muvaffaqiyatsizliklar va adolatsiz baholash destruktiv xatti-harakatlarning rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin. Shu sababli ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni yaratish muhim vazifalardan biridir.

Ijtimoiy-psixologik omillar qatoriga tengdoshlar guruhi ta'siri, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy axborotlar, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi media

mahsulotlari ham kiradi. O'smirlar ko'pincha tengdoshlari tomonidan qabul qilinish istagi sababli salbiy guruhlar ta'siriga tushib qolishlari mumkin. Bu esa tajovuzkorlik, huquqbuzarlik yoki boshqa destruktiv xulq-atvor shakllarining paydo bo'lishiga olib keladi. Psixologik nuqtai nazardan, past o'zini baholash, emotsional beqarorlik, xavotir, frustratsiya, impulsivlik va stressga chidamlilikning pastligi ham xavf omillari hisoblanadi. O'z his-tuyg'ularini boshqara olmaslik va muammolarni konstruktiv yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarining yetishmasligi destruktiv reaksiyalarni kuchaytiradi.

Destruktiv xulq-atvorning oldini olishda maktab psixologining faoliyati alohida o'rin tutadi. Psixolog o'quvchilarning psixologik holatini diagnostika qiladi, xavf guruhiga kiruvchi bolalarni aniqlaydi, individual va guruhiy korreksion mashg'ulotlar o'tkazadi. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikda profilaktik treninglar, psixologik maslahatlar va ma'rifiy tadbirlarni tashkil etadi. Profilaktik ishlarning samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarda emotsional intellektni rivojlantirish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, muloqot madaniyatini shakllantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bu omillar destruktiv xulq-atvor xavfini kamaytirish va ijobiy shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Destruktiv xulq-atvorning shakllanishida shaxsning salbiy ustanovkalari muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunday ustanovkalar insonning atrofdagilarga nisbatan ishonchsizlik, salbiy munosabat va dushmanlik kayfiyatining kuchayishi natijasida yuzaga keladi. S.P. Ivanov va V.V. Boyko tadqiqotlarida destruktiv ustanovkalarining bir necha ko'rinishlari tavsiflangan. Ularga atrofdagilarga nisbatan yashirin dushmanlik, ochiq salbiy munosabat, ayrim salbiy voqealar asosida insonlar haqida umumlashtirilgan salbiy xulosalar chiqarish, sheriklari haqida asossiz salbiy fikrlarni shakllantirish hamda muloqot jarayonida orttirilgan salbiy tajribalarni kiritish mumkin.

Yu.A. Kleyberg va A. Ellis esa destruktiv xulq-atvorning yuzaga kelishini irratsional ustanovkalar bilan izohlaydilar. Ularning fikricha, voqea-hodisalarni noto'g'ri baholash, mantiqsiz e'tiqodlar va salbiy fikrlash uslublari insonning moslashuvchan xulqini izdan chiqarib, agressiv yoki ijtimoiy nomaqbul xatti-harakatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Destruktiv xulq-atvorni tushuntirishga qaratilgan dastlabki biologik nazariyalardan biri Ch. Lombroso nomi bilan bog'liq. U jinoyatchilikni insonning tug'ma biologik xususiyatlari bilan izohlashga harakat qilgan. Olim ayrim morfologik belgilar, xususan bosh suyagi tuzilishi va tashqi jismoniy xususiyatlar jinoyatchilikka moyillikni belgilashi mumkin, degan fikrni ilgari surgan. Lombroso qaranglariga ko'ra, bunday biologik omillar ta'sirida sodir etilgan jinoyatlarni oddiy jazo choralari bilan bartaraf etish qiyin hisoblanadi.

Keyinchalik genetika fanining rivojlanishi biologik omillarning xulq-atvorga ta'sirini yanada chuqurroq o'rganishga imkon yaratdi. Natijada tajovuzkorlik va

jinoyatchilikning xromosoma nazariyalari paydo bo'ldi. Shuningdek, biologik yondashuv doirasida gormonal omillarning agressiv xatti-harakatlarga ta'siri ham tadqiq etildi. Jumladan, 1924-yilda amerikalik olim M. Schlapp mahkumlarning endokrin tizimini o'rganib, ularning muayyan qismida gormonal buzilishlar va emotsional beqarorlik mavjudligini aniqlagan.

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, destruktiv xulq-atvorning turli shakllari yagona yo'nalishda namoyon bo'lib, u ba'zan shaxsning o'ziga, ba'zan esa atrofdagilarga zarar yetkazishga qaratiladi. Shu sababli destruktiv xulqning barcha ko'rinishlarini o'zaro bog'liq psixologik hodisa sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Shaxs kamolotida oila eng muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Bola tug'ilgan kundan boshlab oiladagi muhit, qadriyatlar, urf-odatlar va tarbiya usullari uning shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aynan oilada farzand jamiyatda amal qilinadigan axloqiy me'yorlar va ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtiradi. Shu bois sog'lom oilaviy muhit destruktiv xulq-atvorning oldini olishda muhim omil sanaladi.

Shaxsning ijtimoiy qarashlari va xulq-atvorining shakllanishida pedagoglar, otalar, jamoat tashkilotlari rahbarlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillarining shaxsiy namunasi alohida ahamiyatga ega. Ikki xil standartlarning mavjudligi, ya'ni ayrim shaxslarga me'yorlarning qo'llanilishi, boshqalarga esa tatbiq etilmasligi yoshlarning adolat haqidagi tasavvurlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli barcha fuqarolar uchun qonun va axloqiy me'yorlarning teng amal qilishi muhim hisoblanadi.

Deviant xulq-atvorning ichkilikbozlik, giyohvandlik, suitsidal xatti-harakatlar kabi ko'rinishlari yuzaga kelish sabablari va oqibatlarini bilan bir-biridan farq qiladi. Biroq ularning umumiy jihati shundaki, bunday salbiy odatlar uzoq davom etganda shaxs hayot tarzining ajralmas qismiga aylanib qolishi mumkin. Oiladagi nizolar, yaqinlar bilan kelishmovchiliklar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi hamda ruhiy zo'riqishlar shaxsni destruktiv yo'llar orqali muammolarni hal qilishga undashi ehtimoldan xoli emas.

Jamiyatda insonlarning xatti-harakati va munosabatlari ijtimoiy me'yorlar asosida tartibga solinadi. Destruktiv xulq-atvorning oldini olishda ushbu me'yorlarga rioya etilishini ta'minlash, shaxsni sog'lom ijtimoiy muhitga moslashtirish, oilaviy tarbiya, ta'lim muassasalari va jamiyatning hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat kompleks profilaktik chora-tadbirlar orqali destruktiv xulq-atvorning salbiy oqibatlarini kamaytirish va sog'lom shaxsni shakllantirish mumkin.

Insonda destruktiv xulq-atvorning shakllanishi psixologiya fanida hanuz dolzarb va to'liq yechim topmagan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu masalani tizimli ravishda o'rganish XX asrning o'rtalaridan boshlab jadallashgan. Psixologik yondashuv destruktiv yoki og'ishgan xulq-atvorni shaxsning individual psixologik

xususiyatlari hamda ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog'liq holda tahlil qilishga asoslanadi.

Psixologik tasniflarda og'ishgan xulq-atvor bir qator mezonlar asosida baholanadi. Jumladan, buzilgan ijtimoiy yoki axloqiy me'yorning turi, xulq-atvorning psixologik motivlari va maqsadi, uning shaxs hamda jamiyat uchun keltirib chiqaradigan oqibatlari, shuningdek, xulqning individual-uslubiy xususiyatlari asosiy mezonlar sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yondashuv destruktiv xulqning kelib chiqish sabablarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, "og'ishgan xulq-atvor" tushunchasini har qanday yoshdagi bolaga nisbatan qo'llash ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Odatda ushbu atama besh yoshdan katta bolalarga nisbatan ishlatiladi, biroq uning to'liq mazmunda qo'llanilishi 9–10 yoshdan keyingi davrga to'g'ri keladi. Chunki aynan shu yoshda bola ijtimoiy me'yorlarni anglash va ularga mustaqil ravishda amal qilish qobiliyatiga ega bo'la boshlaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalarda kuzatiladigan ayrim salbiy xatti-harakatlar esa ko'proq yosh xususiyatlari, asab tizimining yetilmaganligi yoki psixik rivojlanishdagi ayrim o'ziga xos holatlar bilan izohlanadi.

Psixologiyada destruktiv xulq-atvor asosan ikki asosiy turga ajratiladi. Birinchisi delinkvent xulq bo'lib, u jamiyatda belgilangan huquqiy me'yorlarni buzishga qaratilgan xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchisi esa deviant xulq bo'lib, unda shaxs jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy va ijtimoiy me'yorlarga zid bo'lgan xulq-atvorni namoyon etadi. Har ikkala holatda ham shaxsning jamiyatga moslashuv jarayonida muayyan qiyinchiliklar kuzatiladi. Destruktiv xulq-atvor ayrim hollarda insonning salbiy hayotiy vaziyatlarga nisbatan himoya reaksiyasi sifatida yuzaga keladi. Shu bilan birga, uning paydo bo'lishida nerv tizimi faoliyatidagi buzilishlar, bolalik davridagi ruhiy jarohatlar, ota-onaning emotsional sovuqqonligi, mehr va e'tiborning yetishmasligi hamda irsiy omillar ham muhim rol o'ynashi mumkin. Ushbu omillarning o'zaro ta'siri natijasida shaxsda agressivlik, ijtimoiy me'yorlarni inkor etish yoki o'ziga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlar shakllanishi ehtimoli ortadi.

Psixoanaliz nazariyasining asoschisi Z. Freyd inson xulq-atvorini ikki asosiy instinkt orqali tushuntiradi. Uning fikricha, Eros hayotni saqlash, rivojlantirish va davom ettirishga xizmat qiluvchi hayot instinkti bo'lsa, Tanatos vayronkorlik, tajovuzkorlik hamda o'limga intilishni ifodalovchi instinkt hisoblanadi. Freyd nazariyasiga ko'ra, ushbu ikki instinkt o'rtasidagi muvozanat insonning xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Destruktiv xulq-atvor elementlari ma'lum darajada har bir insonda uchrashi mumkin. Biroq ayrim shaxslarda bu xususiyatlar kuchliroq namoyon bo'lib, ularning ijtimoiy moslashuvi, shaxslararo munosabatlari va jamiyatdagi o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli destruktiv xulq-atvorning kelib chiqish omillarini

erta aniqlash, profilaktik choralarni amalga oshirish hamda psixologik yordam ko'rsatish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda destruktiv xulq-atvorning shakllanishi ko'plab ijtimoiy va psixologik xavf omillarining o'zaro ta'siri natijasidir. Oilaviy muhit, maktabdagi psixologik iqlim, tengdoshlar ta'siri va individual psixologik xususiyatlarni chuqur tahlil qilish bunday xulq-atvorning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Maktab psixologi, pedagoglar va ota-onalarning uzviy hamkorligi, psixologik profilaktika hamda korreksion dasturlarni tizimli amalga oshirish o'quvchilarning sog'lom rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sharaffitdinov, A., & Yusupov, U. (2022). The opportunities of educating morality for children through samples of folklore. Eurasian Scientific Herald, 5, 65-68.
2. Sharafitdinov Abdulla, Qurbonboyev Miraziz Zulxaydar o'g'li Psychological Characteristics of DecisionMaking in Management Global Scientific Review A
3. Peer Reviewed, Open Access, International Journal www.scienticreview.com
4. Volume 1, February 2022 ISSN (E): Pending
5. Sharofitdinov, A. (2022). BOSHQARUV JARAYONIDA QAROR QABUL
6. QILISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от
7. <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5405>
8. Sharofitdinov, A. (2022). O'SMIRLARDA O'QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6), 82-87.